

**MAISHIY JANRDAGI ASARLARNI BADIY TAHLIL JARAYONIDA
TALABALARNING MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH**

**DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING OF STUDENTS IN THE
PROCESS OF ARTISTIC ANALYSIS OF WORKS OF DOMESTIC GENRE**

*Nizomiy nomidagi TDPU “ Tsviriy san’at va amaliy bezak ” yo’nalishi 1-kurs
magistranti*

A. H. Karimova

Annotatsiya: *Maishiy janrdagi asarlarni badiiy tahlil qilish jarayonida talabalarni mantiqiy fikrlashini rivojlantirish shakl, metod va vositalari. Unda kompozitsiya asoslari va badiiy tahlil tushunchasi, tuzilishi, unga qo’yilgan talablar, talabalarni mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, badiiy tahlil qilish jarayonida talabalarni mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning samarali metodlari keltirilgan.*

Аннотация: *Формы, методы и средства развития логического мышления учащихся в процессе художественного анализа произведений бытового жанра. Содержит основы композиции и понятие художественного анализа, структуру, требования к ней, развитие логического мышления учащихся, эффективные методы развития логического мышления учащихся в процессе художественного анализа.*

Resume: *Forms, methods and means of developing logical thinking of students in the process of artistic analysis of works in the domestic genre. It contains the basics of composition and the concept of artistic analysis, structure, requirements for it, development of logical thinking of students, effective methods of developing logical thinking of students in the process of artistic analysis. Kalit so’zlar: janr, badiiy tahlil, mantiqiy fikrlash, kompozitsiya, metod, usul, ranglar, asar, maishiy janr, tanqid, tahlil, san’atshunoslik, estetika.*

Ключевые слова: *жанр, художественный анализ, логическое мышление, композиция, метод, метод, цвета, произведение, бытовой жанр, критика, анализ, искусствоведение, эстетика.*

Key words: *genre, artistic analysis, logical thinking, composition, method, method, colors, work, household genre, criticism, analysis, art science, aesthetics.*

O‘zbekistonda yangi ma’naviy-g‘oyaviy yo’nalishlarning shakllanishi o‘z navbatida, zamonaviy san’atning barcha sohalariga ta’sir etib, ijobiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtiradi. Tarixiy, madaniy va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarining keng qatlamlarini qayta idrok etish g‘oyalari, yangilanish tamoyillari tasviriy va amaliy san’at tizimida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an’analarini rivojlantirish, undan foydalanish, undagi ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy material bilan ishlash, insonlarda, ayniqsa, yoshlarda qunt, chidam, qatiyat, tasviriy san’atning

falsafiy, psixologik, qirralarini urgatish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim tizimida, ya'ni maktab, litsey, kasb-hunar kollejlarda, oliy o'quv yurtlarida o'quvchi-yoshlarni siyosiy-g'oyaviy va estetik ruxda tarbiyalashda, go'zallikni seza bilishga, tasviriy san'at asarlarini o'rganishga, ulardan baxra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, ushbu san'atga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, kasb tanlash, ko'nikma va dunyoqarashini shakllantirishda muxim ro'l o'ynaydi..

Badiiy ta'limning hozirgi amaliyotida badiiy bilimlarni o'rganish talabalarining amaliy studiya ishini bajarishda va tanqidiy bilimlarni ishlab chiqarish masalalarini hal qilish qobiliyatini o'z ichiga olganini anglatadi. O'qitish nuqtai nazaridan, studiya amaliyotini o'rganish to'g'ridan-to'g'ri rasmlar, rasm, fotografiya, arxitektura, grafika dizayni, interer dizayni va boshqa ko'plab mavzular bilan shug'ullanadigan amaliy mavzular orqali amalga oshiriladi. Tanqidiy bilimlarni o'rganishga kelsak, u san'at tarixi, san'atni qadrlash, san'atshunoslik va estetika kabi nazariy fanlar orqali beriladi. San'at bo'yicha bilimlarga ega bo'lgan talabalar nafaqat har bir tarkibiy qismlarning mazmunini, balki ikkala komponentning integratsiyasini ham namoyish eta olishlari kerak. Boshqacha qilib aytganda, talabalar badiiy ijod qilishda mohir bo'lishdan tashqari, san'at haqida gapirish yoki yozishni bilishlari kerak. Talabalarning tanqidiy bilimlarini oshirishda badiiy ta'limning keng tarqalgan yondashuvlaridan biri bu ularga san'atshunoslikni o'rgatishdir. Bunday yondashuvda, talabalarga nafaqat tanqid qilishning tegishli bosqichlarini o'rganish, balki to'g'ridan-to'g'ri o'zlarining studiyalarida olib boradigan amaliyoti davomida tanqid qilishning to'g'ri strategiyalarini qo'llash o'rgatiladi. Bu atama sifatida san'atshunoslik san'at asarini jiddiy va ob'ektiv tekshirish va uni muntazam ravishda ko'rib chiqish jarayonini anglatadi. Badiiy tanqid jarayoni badiiy asarlarning ma'nosi va ahamiyati to'g'risida tushuncha berish orqali odamlarni (shu jumladan san'atkorlarni) san'at to'g'risida xabardor qilishga va bilishga o'rgatadi. San'atshunoslik orqali odam san'at haqida tushunchasini oshirishga yordam beradi va shu bilan san'at asari nimaga ta'sir ko'rsatishini madaniy va ijtimoiy qadriyatlar bilan yoritib berish orqali san'atga bo'lgan hurmat hissini shakllantirishga yordam beradi. Garchi badiiy tanqid hali ham falsafiy jihatdan bahsli tushuncha bo'lsa-da¹⁴, amaliy jihatdan badiiy asarlarni lingvistik tadqiq qilish yoki san'at haqida suhbat¹⁵ unda biz san'atning yanada chuqurroq ma'nosini kashf etamiz va unga munosabat bildirishda kuzatish usullarimizni aniqlaymiz. Ko'rish san'atshunoslikda eng muhim fazilati hisoblanib, ayniqsa hozirgi san'ati tizimida, san'at o'qituvchilari kuchli studiya amaliyotidan tashqari san'at darslarida badiiy tahlil va san'atshunoslik bo'yicha darslarni taklif qilishga ehtiyoj seziladi.¹⁶Badiiy tahlil qilish orqali san'at asarlarining ma'nosi va ahamiyatiga bog'liqligiga ishonch hosil qilinadi. Bu esa

¹⁴ Geahigan, G. (1983). Art criticism: An analysis of the concept. *Visual Arts Research*, 9(2), 10-22.
doi:10.2307/20715530

¹⁵ Feldman, E.B. (1982). *Varieties of visual experience*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.

¹⁶ Hamblen, K. A. (1985). A descriptive and analytical study of art criticism formats with implications for curricular implementation. *American Educational Research Association Arts and Learning SIG Proceedings*, 3, 1-13.

hozirgi ehtiyojga mos kontekstda og'zaki yoki yozma munozara shakli orqali tasvirlarni badiiy tahlil san'ati bilan shug'ullanadi.¹⁷ Tasviriy san'at asarlarini tahlil qilish orqali badiiy tahlilni mashq qilish odamning idrokini va tasavvurini oshiradi, boshqalarga nisbatan his-tuyg'ular va insoniylik darajasini ko'tarish chuqurlashadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash kerakki, bu maqolladan maqsadimiz tasviriy san'atning maishiy janrida yaratilgan asarlarni badiiy tahlil qilish orqali, talabalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirib, ularda milliy ma'naviy qadryatlarga bo'lgan muhabbatni kuchaytirish. Tasviriy san'atning maishiy janri bu o'rinda alohida ahamiyat kasb etadi. Vaholanki shunday ekan, biz bu janr haqida ham nazariy, ham amaliy bilimlarni o'zlashtirishimiz lozim.

Maishiy janr - tasviriy san'atning kundalik ijtimoiy va shahsiy hayotni, maishiy turmushni aks ettiradigan janri. Turmushda ko'zga tashlanadigan o'zaro munosabatlar va xatti-harakatlarni, uning ichki mohiyati va ijtimoiy tarixiy mazmunini chuqur ochib berish kabi xususiyatlarga ega. Demokratik va realistik badiiy an'analarning o'sishi, rassomlarning xalq hayoti va mehnat faoliyatini atroflicha tasvirlashga qiziqishining ortishi bilan bogliq holda rivojlandi. Maishiy janrda rangtasvir yetakchi o'rin tutadi, grafika, kichik hajmdagi haykaltaroshlikda ham maishiy mavzu keng tarqalgan. Maishiy lavhalar ibtidoiy san'at (ov manzaralari, urf-odatlar tasvirlari), Sharq (devoriy rasmlar va relyeflar) va Yunon (vazalar bezagi) san'atida ko'p uchraydi, ellinizm san'atida muhim o'rin z gallagan. Dastlabki namunalari qadimgi Sharq (Xitoy, keyinroq Koreya, Yaponiya)da yaratildi. Uygonish davrida Maishiy janr real voqealar, maishiy detallar bilan boyitildi. O'rta asrlarda ham Yevropa, ham Osiyoda devoriy rasmlar, bo'rtma naqshlar, miniatyuralar keng tarqaldi, Sharqda va Yevropada san'atning maxsus janri sifatida namoyon bo'ldi. 17-asrdan maishiy hayot ijtimoiy mazmunga ega bo'ldi, hajviy, ijtimoiy tanqidiy yo'nalish yuzaga keldi, emotsional nafislik, psixologik noziklik va o'tkir xayotiy kuzatishlar o'z aksini topdi. Jaxon rassomlari Jotto, Rembrand, U. Xogart, A. Vatto. F. Goyya, P. P. Rubens, V. G. Perov, I. Ye. Repin, V. Ye. Makovskiy, A. A. Deyneka kabilarning maishiy janrlardagi yetuk san'at asarlari mashhur.

Hozirgi kunda maishiy janr, san'atda o'z ijodiy yo'liga ega O'zbekiston Xalq rassomi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Akademigi, professor Akmal Ikromjonov asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Akmaljon To'rayevich Ikromjonov (1952.20.4, Toshkent) — rangtasvir ustasi, ijtimoiy mavzularni milliy yorqin, o'ziga xos tarzda uyg'un ranglarda, ramziy cheksiz makonda tasvirlaydi: Akmal Ikromjonov tomoshabinlarga tanilgan rassom. Uning asarlarida yuksak mahorat, noyob badiiy maktab estetikasi, dunyo san'ati va milliy an'analarning eng go'zal jihatlarini uyg'unlashadi. Uning “ Samarqand nonlari” (2020) asari o'ziga xos badiiy makonda zamonaviy san'at orqali hayotning falsafiy jihatlarini aks ettirgan. Asarda biz qadimiy va navqiron shaharning dovrug'ini dunyoga doston qilgan

¹⁷ Greer, W. D. (1984). Discipline-based art education: Approaching art as a subject of study. *Studies in Art Education*, 25(4), 212-218. doi: 10.2307/1320414

ramzlaridanbiriga aylanib ulgurgan, xushta'mligi, to'yimliligi va o'zgacha bir chiroyi bilan mashhur Samarqand nonlarini va albatta, haqiqiy o'zbek oilasining milliy qadryatlarimizni aks ettirgan turmush tarzini ko'rishimiz mumkin. Samarqand shahrining aksariyat aholisi novvoylik bilan shug'ullanadi. Buning ham o'ziga xos tarixi bor. Shahardan Siyob va Obi Rahmat ariqlari o'tgan. Ular tezoqar ariq bo'lib, ba'zi joylari balanddan pastga qarab tushadi. Shu bois bu yerda tegirmonlar ko'p bo'lgan. Tegirmonchilar yanchilgan bug'doy changini yig'ib alohida xaltaga solgan va o'zlari non qilib yegan. Ajablanarlisi, bu undan tayyorlangan nonlar boshqa joylarda samarqandagidek chiroyli, shakldor va mazali chiqmagan. Asta-sekin mahallada tegirmonchilardan novvoylar avlodi, sulolasi shakllangan. Shuning uchun ham asarda ona va bola obrazi mohirona tasvirlangan, chunki Murg'ak tasavvurli bola ilk tarbiyani oilada oladi. Bola tarbiyasining ilk saboqlari haqida atoqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud Axloq" kitobida quyidagi ibratli o'g'itlarni aytgan edi: "Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvatlantirmak, zexnimizni ravshanlashtirmak lozim"⁵. Yosh avlodda kelajakka bo'lgan ishonch xissini uyg'otish uchun esa, ajdodlarimizning ma'naviy-axloqiy merosini chuqur o'rgatish, ularning iste'dodi va qobiliyatini buyuk maqsadlar sari yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, oilalarda moddiy boylikning ko'payishi, undan ota-onalar va bolalarning noto'g'ri foydalanishi, o'smirlarning bir qismida hayotga iste'molchilik, boqimandalik nuqtai-nazardan

A. Avloniy. "Turkiy guliston yohud axloq". T., "O'qituvchi". 1994

qarashni, tubanlikni, xudbinlikni keltirib chiqaradi, mehnatsiz boylik orttirish kayfiyati kuchayadi. Asarda oilada bola tarbiyasini amalga oshirish xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Bola tarbiyasining milliy va ma'naviy negizlari hamda bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o'rni keng. Shubxasiz bunday vazifani oilada ayollar bajaradi. Vatanga bo'lgan muhabbat, sadoqat, ona allasi orqali vujudimizga, qonimizga singib bo'lgan.



Rassom ona timsolini tasvirlash orqali hayotning davomiyligiga ishora qilmoqda. Ayollarni, qizlarni bahorga qiyoslashadi. Go'zallik, nafosat, yangilanish, hayot davomiyligi bahor va ayol tushunchalarida uyg'unlashib ketadi. Barchalarimizga ayonki, ayol – bashariyat gultoji, benazir xilqat. Ayol – borliq ko'zgusi. Uning nafis go'zalligi olamni charog'on etadi, chunki uning niyati pok, o'zi pok. O'zbek ayolining qiyinchiliklarini yengishi haqida gapirib o'tirish shart emas. Ne- ne azob-u uqubatlarga bardosh beradi, hattoki oilasi, farzandlari uchun jonini berishga tayyor. Buni asardagi onaning nigohlaridan anglab olishimiz mumkin. Negaki ona o'z farzandiga mehr va muhabbat bilan tikilib turibdi, rassom, farzandidan orzu-umidlari cheksiz onani mohirona tasvirlagan. Onaning nigohlari farzandiga qaratilganining boisi, o'zbek ayoli butun hayotini, farzandining kamol topishi, komil inson bo'lib yetishishi uchun baxshida qilishini isbotlaydi. Shuning uchun ham, bugungi kun yurtimiz o'g'lonlari buyuk bobokalonlarimiz izdoshi bo'lib kelmoqda. Bola yelkasidagi qush esa uning vatanga bo'lgan sadoqatini bildiradi. Qushlar – sadoqat va muhabbat ramzi hisoblanib, rassom, bolaning ona yurtiga bo'lgan muhabbatini ko'rsatib bergan.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, “ foniy dunyoda yashayotgan xar qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy o'zbekona milliy an'anamizni, tariximizni, boy madaniyatimizni, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi lozim,”⁶ chunki vatan ostonadan, inson yashab nafas olib turgan go'shadan, insonning kindik qoni to'kilgan xonadon tuprog'idan boshlanadi. Shu bois, inson ilk bor nafas olib, ulg'ayib voyaga yetgan ona zaminga mehr-muhabbat va sadoqatda bo'lishi, uning har bir hovuch muqaddas tuprog'ini ko'ziga to'tiyodek surtishi, unga nisbatan bir umr farzandlik hissi bilan yashashi uning uchun ham farz, ham qarzdir. Vatanimiz tuprog'idagi har bir qarich

yermuqaddas hisoblanadi. Shuning uchun ajdodlarimiz yurt tuprog'ini ko'zlariga to'tiyoetganlar, qayerga borsa ham vatan yodi bilan nafas olganlar.

'S.S.Bulatov, M.S.Soipova, Badiiy tahlil tamoyillari (Tasviriy, amaliy va me'morchilik san'at asarlari misolida). (Monografiya) –T.: “Fan texnologiya”, 2016.

Yurtimiz insonlari vatanimizdan tashqarida baxt-saodatga erisha olmaydilar. Har bir insonning o'z Vatani uning uchun dunyodagi eng go'zal va muqaddas makondir. . Vatanga mehr-muhabati bo'lmagan insonni ota-onasiga mehri bor desalar bunga ishonib bo'lmaydi. Ona vatanimizga sadoqatli bo'lish, ajdodlar merosiga qiziqish, milliy ma'naviyatdan baxramandlik, o'ziga ishonch, kelajak oldida ma'sullik tuyg'ularini tarbiyalash kabi bunyodkor g'oyalar asarning asosiy mazmuni hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1.. Geahigan, G. (1983). Art criticism: An analysis of the concept. Visual Arts Research, 9(2), 10-22. doi:10.2307/20715530

2. Feldman, E.B. (1982). Varieties of visual experience. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.

3.Hamblen, K. A. (1985). A descriptive and analytical study of art criticism formats with implications for curricular implementation. American Educational Research Association Arts and Learning SIG Proceedings, 3, 1-13.

4.Greer, W. D. (1984). Discipline-based art education: Approaching art as a subject of study. Studies in Art Education, 25(4), 212-218. doi: 10.2307/1320414

5. A.Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq”. T., “O'qituvchi”. 1994

6. S.S.Bulatov, M.Soipova, Badiiy tahlil tamoyillari (Tasviriy, amaliy va me'morchilik san'at asarlari misolida). (Monografiya) –T.: “Fan texnologiya”, 2016.

7. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

8.Jamoa. Oila pedagogikasi. T., “Aloqachi”, 2007

9.M.C.Саипова, С.С.Булатов. Тасвирий санъат методологияси. [укув кулланма]- —Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021. 232 бет.

10.Talipov, N., & Talipov, N. (2021). CREATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY THROUGH EDUCATION. Збірник наукових праць ЛОГОΣ. <https://doi.org/10.36074/logos-19.03.2021.v3.12>

11. Миллий гоё ва рахбар масъулияти. Муаллифлар жамоаси. Ўзбекистон Республикаси Президентига хузуридаги Давлат ва жамият курилиш академияси. Т.: Ёафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2007.-736 б.-261 -261 б.